

**BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING
LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK
MUAMMO SIFATIDA.**

Saidnazarova To'lg'onoy Mahmudovna

"University Of Economics And Pedagogy" Notm

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotasiya: *Maqolada bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida ijodkorlik, modellashtirish loyihalash qobiliyatlarinin rivojlantirish boyicha tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'z iboralari: *loyihalash, ijodiy qobiliyatlar, texnikaviy ko'nikmalar, texnologiya va dizayn, servis xizmati, kasbga yo'naltirish, texnologik yondashuv.*

Abstract: *The article provides recommendations on the development of creativity, modeling and design skills of future technological education students.*

Key words: *design, creative abilities, technical skills, technology and design, service, career guidance, technological approach.*

Globalashuv sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yoshlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning qalbida ona-yurtimizga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bo'lajak Texnologik ta'lim o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni, metodi, shakli va vositalarini belgilash ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishi yuqorida ko'rsatilgan masalalarni yechishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan Konsepsiya maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida Texnologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab berdi, jumladan: rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish”[6]:

– “Texnologik ta'lim me'yoriy hujjatlarini ta'lim sifati va raqobatbardosh mutaxassislarni o'qitishga qo'yilgan xalqaro talablarga mosligini ta'minlash;

– Texnologik ta'lim bo'yicha maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini uzviyligini ta'minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- Texnologik ta'lim mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o'qitishning yangi aspektidagi metodikasini ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
 - maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida Texnologik ta'limning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va bitiruvchilarni kasb-hunarga o'rgatish orqali hayotga tayyorlash ishlarini tashkil etish;
 - Texnologik ta'lim mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;
 - Texnologik ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida dual tizimli o'quv modullarini ishlab chiqish;
 - ta'lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish;
 - Texnologiya fanining ilmiy metodik ta'minoti (darslik, o'qituvchi kitobi, ish daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
 - umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi Texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas; Texnologiya fanini o'qitishda kompetensiyalar va fanlararo integratsiyaning yetishmasligi; Texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;
 - talabalarda ta'lim olishga nisbatan motivatsiyani paydo qilish uchun ta'lim oluvchilarda zamonaviy axborot vositalari, texnologiyalari, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim tizimida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda" [133.34-b].
- Bundan ko'rinadiki, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnologiya fanini o'qitishga tayyorlashda ularda umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda maxsus kompetensiyalarni ham shakllantirish belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat hisoblanadi.
- Ma'lumki, o'qitish jarayoni boshqariladigan jarayondir. O'qituvchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash xususiyatlariga ko'ra maqsad, faoliyat, natija, ya'ni ta'lim natijasini oldindan ko'ra olish (gnostik) qobiliyatini o'zida mujassam etishi, o'qish-o'qitish masalalarini va ularni amalga oshirish texnologiyalarini loyihalash qonuniyatlarini bilishi lozim. Loyihalangan texnologiya dars mavzuyiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilib, tanlangan qo'shimcha ma'lumotlar talabalar kuchiga, bilim darajasiga, yosh va individual xususiyatlarga mos kelishi kerak.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Umumiy o'rta ta'limda izchil ravishda boshlang'ich sinflardagi texnologiya darslari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiradigan loyihalashga doir mashg'ulotlarni tashkil etish ularda loyihalash ko'nikmasini shakllantirish imkonini hosil qiladi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga ma'nan va psixologik jihatdan tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich texnologik bilim, mehnat ko'nikmalari bilan qurollantirish, o'quvchilarni mehnat ta'limi jarayonida har tomonlama o'stirishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda ularning nafaqat loyihalash ko'nikmalarini, shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi ham dolzarblikni kasb etadi. Shundan kelib chiqib, birinchi o'rinda pedagogik kasbi va uning darsni tashkil etish, talabalarga ta'lim-tarbiya berish usullari to'g'risida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida o'qituvchilar kasbi va uning darsni to'g'ri tashkil etishga doir pedagogik fikrlarini keltirib o'tish tanlangan mavzuning nazariy asoslarini puxta ochib berish imkonini yuzaga keltiradi. Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda ularning nafaqat loyihalash ko'nikmalarini, shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi ham dolzarblikni kasb etadi. Shundan kelib chiqib, birinchi o'rinda pedagogik kasbi va uning darsni tashkil etish, talabalarga ta'lim-tarbiya berish usullari to'g'risida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida o'qituvchilar kasbi va uning darsni to'g'ri tashkil etishga doir pedagogik fikrlarini keltirib o'tish tanlangan mavzuning nazariy asoslarini puxta ochib berish imkonini yuzaga keltiradi. Keltirilgan fikrlardan shuni ko'rish mumkinki, o'qituvchilik kasbi, o'qituvchining kasbiy layoqatlari, ko'nikmalari, kompetensiyalari to'g'risida mutafakkirlarimiz ham o'z pedagogik qarashlarini bildirib o'tishgan. Bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchidan nafaqat bilimli, shu bilan birgalikda ma'lum kasbga doir bo'lgan ko'nikma va kompetensiyalarni egallash mas'uliyati qo'yilmoqda. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun muhim sanalgan texnologik kompetensiyalari, jumladan, loyihalash ko'nikmasi muhim kasbiy sifatlardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish joiz bo'ladi. Keltirilgan fikrlardan shuni ko'rish mumkinki, o'qituvchilik kasbi, o'qituvchining kasbiy layoqatlari, ko'nikmalari, kompetensiyalari to'g'risida mutafakkirlarimiz ham o'z pedagogik qarashlarini bildirib o'tishgan. Bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchidan nafaqat bilimli, shu bilan birgalikda ma'lum kasbga doir bo'lgan ko'nikma va kompetensiyalarni egallash mas'uliyati qo'yilmoqda. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun muhim sanalgan texnologik kompetensiyalari, jumladan, loyihalash ko'nikmasi muhim kasbiy sifatlardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish joiz bo'ladi. Olimning fikrlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, izchilligi, talaba shaxsi ustuvorligini inobatga olib yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishini ta'kidlab o'tamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atayeva N., M. Salayeva, S. Hasanov Umumiy pedagogika (pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari. O'quv qo'llanma. II kitob. – T.: Fan va texnologiya, 2013y, 329 s
2. Berger R. Interpersonal communication: theoretical perspectives, future prospects. Journal of Communication, 2005. - №55, P. 415-447.
3. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. – Continuum, Australia, 2011.
4. Terhart E. Teacher education in Germany. – Bucharest : UNESCO
5. Xayrullayev D.B. “Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalar yordamida matematika fanini o'qitish” 55 bet
6. Zaparov A. Texnologiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Andijon. “Hayot nashri-2020”. 2022 y. 60 bet.

